

**KORPORATIV NIZOLARDA DA'VONI TA'MINLASHNING O'ZBEKISTON VA XORIJIY SUD AMALIYOTIDAGI O'ZIGA XOS JIHLTLARI****Suyunov Javohirbek Ilxom o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Biznes huquqi mutaxassisligi magistranti

E-mail: [javohirs981@gmail.com](mailto:javohirs981@gmail.com)

Tel: (94) 437-55-99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15540241>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola korporativ nizolarda da'voni ta'minlashning O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiya) sud amaliyatidagi o'ziga xos jihatlarni chuqur tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda O'zbekiston Iqtisodiy protsessual kodeksi (IPK) asosida da'vo ta'minlash choralarining huquqiy asoslari, qo'llanilish tartibi va kelib chiqadigan amaliy muammolarini o'rganadi, shuningdek, ushbu choralar korporativ nizolarni hal qilishda qanchalik samarali ekanligini baholaydi. Xorijiy tajriba sifatida AQShning Federal fuqarolik va iqtisodiy protsessual qoidalari, Buyuk Britaniyaning iqtisodiy protsessual qoidalari va Rossiyaning Arbitraj protsessual kodeksi asosida da'vo ta'minoti mexanizmlari tahlil qilinadi. Ushbu davlatlarning sud amaliyati O'zbekiston bilan solishtirilganda, xususan, protsessual tezlik, choralarning xilma-xilligi va xalqaro nizolarni hal qilishdagi samaradorlik kabi jihatlarda sezilarli farqlarni ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Korporativ nizolar, da'vo ta'minlash choralari, O'zbekiston qonunchiligi, xorijiy sud amaliyoti, Iqtisodiy protsessual kodeksi, AQSh sudlari, Buyuk Britaniya sudlari, Rossiya sudlari, mulkni muzlatish, vaqtincha taqiq, solishtirma tahlil, sud jarayonlari, aksiyadorlar huquqlari, korporativ boshqaruv.

**Abstract.** This article is dedicated to an in-depth analysis of the specific features of securing claims in corporate disputes within the judicial practice of the Republic of Uzbekistan and foreign countries (the United States, the United Kingdom, and Russia). It examines the legal foundations, procedures for application, and practical issues arising from the measures to secure claims under the Economic Procedural Code of Uzbekistan. Furthermore, it evaluates the effectiveness of these measures in resolving corporate disputes. As for foreign experience, the article analyzes mechanisms for securing claims based on the U.S. Federal Rules of Civil and Economic Procedure, the United Kingdom's economic procedural rules, and Russia's Arbitrazh Procedural Code. A comparative analysis of the judicial practices of these countries with that of Uzbekistan reveals significant differences, particularly in terms of procedural efficiency, the diversity of measures, and the effectiveness in resolving international disputes.

**Key words:** Corporate disputes, measures to secure claims, legislation of Uzbekistan, foreign judicial practice, Economic Procedural Code, U.S. courts, U.K. courts, Russian courts, asset freezing, interim injunctions, comparative analysis, court proceedings, shareholders' rights, corporate governance.

**Аннотация.** Данная статья посвящена всестороннему анализу особенностей обеспечения иска в корпоративных спорах в судебной практике Республики Узбекистан и зарубежных стран (США, Великобритания и Россия). В работе рассматриваются правовые основы, порядок применения и практические проблемы, возникающие при применении мер обеспечения иска на основе Экономического процессуального кодекса Узбекистана. Также оценивается эффективность данных мер в разрешении корпоративных споров. В качестве зарубежного опыта проанализированы механизмы обеспечения иска, предусмотренные Федеральными гражданскими и экономическими

процессуальными правилами США, экономическими процессуальными нормами Великобритании и Арбитражным процессуальным кодексом России. Сравнительный анализ судебной практики указанных стран с практикой Узбекистана выявляет существенные различия, в частности в аспектах процессуальной оперативности, разнообразия применяемых мер и эффективности разрешения международных споров.

**Ключевые слова:** корпоративные споры, меры обеспечения иска, законодательство Узбекистана, зарубежная судебная практика, Экономический процессуальный кодекс, суды США, суды Великобритании, суды России, замораживание активов, временные запреты, сравнительный анализ, судебные процессы, права акционеров, корпоративное управление.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ munosabatlar va ulardan kelib chiqadigan nizolar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida vujudga keladigan korporativ nizolar sud amaliyotida keng uchramoqda. Mazkur nizolarning tez va adolatli hal etilishi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki investorlar ishonchini ta'minlash, korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan, da'voni ta'minlash instituti korporativ nizolarni hal qilishda muhim protsessual mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida da'voni ta'minlash masalalari Iqtisodiy protsessual kodeksda belgilangan bo'lib, bu institut orqali da'vogar shaxsning haq-huquqlari himoya qilinishi, ish bo'yicha hal qiluvchi hujjat chiqarilishigacha bo'lgan bosqichda da'vo obyektining yo'qolib ketishi yoki shikastlanishining oldi olinadi. Xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Fransiya, AQSh kabi rivojlangan huquqiy tizimlarga ega mamlakatlar sud amaliyotida ham ushbu institut muhim o'ringa ega bo'lib, har birida o'ziga xos yondashuv va tartiblar mavjud. Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy davlatlar sud amaliyotida da'voni ta'minlash choralari qanday qo'llanilishi, ularning samaradorligi va huquqiy asoslari qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida o'rganiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar tahlil qilinib, ushbu institutni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Dastavval, da'voni ta'minlash tushunchasi haqida mushohada yuritadigan bo'lsak, **da'voni ta'minlash** — bu sudga murojaat qilgan shaxsning da'vo bo'yicha qaror chiqarguniga qadar uning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qo'llaniladigan vaqtinchalik choratadbirlar majmuasidir<sup>1</sup>. Sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxs tomonidan berilgan ariza, da'voni ta'minlash choralari qo'llashga asos bo'lib xizmat qiladi. Agar bunday choralar ko'rilmasa, sud hujjatining ijrosiga jiddiy to'siq yuzaga kelishi yoki uni amalga oshirish butunlay imkonsiz bo'lib qolishi ehtimoli mavjud bo'lsa, da'voni ta'minlash tadbirlari iqtisodiy ish yuritishning har qanday bosqichida tatbiq etilishi mumkin.

Agar ish davlat foydasiga mulkiy xarakterdagi talablarni undirish bilan bog'liq bo'lsa, bunday holatlarda sud da'vogarning murojaati asosida da'voni ta'minlash choralari majburiy tarzda qo'llashi shart. Shuningdek, davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qabul qilingan noqonuniy hujjat, yoxud ularning mansabdor shaxslarining huquqiy asosga ega bo'lmagan harakatlari (yoki harakatsizligi) oqibatida tadbirkorlik subyektiga zarar yetkazilgan bo'lsa, sud bunday da'volarni ko'rib chiqishda da'vogarning arizasiga asosan da'voni ta'minlash choralari ko'rishi majburiy hisoblanadi. Hakamlilik sudida ko'rib chiqilayotgan ishlar doirasida, agar taraflardan biri bu haqda ariza bilan murojaat qilsa, iqtisodiy

<sup>1</sup> Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adbiyotlar Publish, 2022-y. – 116-bet.

sud tomonidan da'voni ta'minlashga doir choralar ko'rib chiqilishi mumkin<sup>2</sup>. Xuddi shuningdek, arbitraj sudida ko'rilayotgan ish yuzasidan arbitraj jarayonida ishtirok etayotgan tarafning arizasiga binoan ham iqtisodiy sud da'voni ta'minlash choralari qo'llashi mumkin. Ushbu institut, ayniqsa, korporativ nizolar kabi moliyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega ishlar bo'yicha muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu turdagi nizolar **ko'p hollarda da'vo obyektining yo'qolishi, yashirilishi, sotilishi yoki boshqa shaxslar nomiga o'tkazilishi xavfi bilan bog'liq bo'ladi**. Da'vo – buzilgan haq-huquqni talab qilish yoki uni himoya etish haqida sudga qilinadigan murojaatdir. Da'vogarning talablari javobgar tarafidan ixtiyoriy bajarilmaganda da'vo qilinadi. Ba'zan da'vo qanoatlantirilgan qarorni ijro etish juda qiyin yoki imkonsiz bo'lishi mumkin. Bunday holatning oldini olish maqsadida qonunchilikda da'voni ta'minlash instituti joriy etilgan. Fuqarolik protsessual kodeksining 105-moddasida ham sud da'voni ta'minlash choralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi yoki o'z tashabbusi bo'yicha ko'rishi mumkinligi belgilab qo'yilgan<sup>3</sup>.

**Iqtisodiy protsessual kodeksning 94-moddasida** ko'rsatilgan da'voni ta'minlash choralari, agar ularni qo'llamaslik sudning hal qiluv qarorini bajarishga qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lsa yoxud bajarib bo'lmaydigan qilib qo'ysa, ish bo'yicha ish yuritishning har qanday bosqichida qabul qilinishi mumkin. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi iltimosnoma da'vo arizasida bayon etilishi yoki alohida ariza shaklida iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida berilishi mumkin. Korporativ nizolar o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, ular ko'pincha jamiyat ishtirokchiligining shakllari – aksiyalar, ulushlar yoki paylarga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, sud tomonidan da'voni ta'minlash choralari qo'llash yuridik shaxs faoliyatiga jiddiy to'sqinlik qilishi, hatto boshqa shaxslarning huquqlari buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Aslida esa da'voni ta'minlashning maqsadi – boshqa shaxslarning qonuniy faoliyatiga aralashish yoki ularni muayyan huquqlardan mahrum qilish emas, balki ariza beruvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Korporativ nizolar doirasida qo'llaniladigan da'voni ta'minlash choralari qo'yilgan talablar bilan bevosita bog'liq, nizo predmetiga daxldor, da'vo hajmiga mutanosib bo'lishi, hamda sud qarorining bajarilishini ta'minlash uchun zarur va yetarli darajada bo'lishi shart. Biroq, amaliyotda ba'zan nizo predmetiga aloqasi bo'lmagan ta'minlash choralari ham korporativ nizolar bo'yicha qo'llanilgan holatlarga duch kelinadi.

Korporativ nizolar iqtisodiy sudlarda ko'rilayotganida da'voni ta'minlash bilan bog'liq amaliyotda uchraydigan ayrim muammoli holatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Jumladan, ulushning mansubligi to'g'risidagi nizoni ko'rib chiqish jarayonida nizoning predmetiga bevosita bog'liq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi ulushlarini xatlab qo'yish to'g'risidagi da'voni ta'minlash chorasini qo'lashda ayrim muammolar mavjud. Bunday talab jamiyatda shaxsning ishtirok etish huquqini ta'minlovchi ulushning sotilishi yoki sotishdan boshqa usulda begonalashtirilishini oldini olishga qaratilgan bo'ladi<sup>4</sup>. Ya'ni, agar sud hujjatida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatni boshqarish huquqini amalga oshirishni cheklash, jumladan umumiy yig'ilishlarda ishtirok etish, ularda ovoz berish, imtiyozli huquqlarni amalga oshirish, jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish huquqidan mahrum qilmaydi. Javobgarga yoki

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 93-moddasi <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>;

<sup>3</sup> [https://uza.uz/oz/posts/davoni-taminlash-instituti-qachon-qollaniladi\\_612379](https://uza.uz/oz/posts/davoni-taminlash-instituti-qachon-qollaniladi_612379).

<sup>4</sup> Korporativ nizolarni sudda ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent, 2023. – 93 b.

boshqa shaxslarga jamiyat va shirkatning ustav fondida mavjud bo'lgan aksiyalar, ulushlar yoki paylar bo'yicha bitimlar tuzish va boshqa harakatlarni amalga oshirishni taqiqlovchi da'voni ta'minlash chorasi qo'llanilgan taqdirda, ushbu taqiq faqat bitimlar bilan cheklanmaydi. U, shuningdek, mazkur fuqarolik-huquqiy obyektlar bilan bog'liq boshqa harakatlar – aksiyalarni ayirboshlash, ulush (aksiya) qiymatini to'lash, garovga qo'yish kabi operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Bunday ta'minlash choralari nafaqat javobgarga, balki uchinchi shaxslarga, masalan, aksiyalarga oid huquqlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Sud amaliyotida da'voni ta'minlash choralari doirasida eng ko'p uchraydigan muammolardan biri – bu **ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini o'tkazishni taqiqlash haqidagi talabdir**. Holbuki, jamiyatning faoliyati ko'pincha umumiy yig'ilish orqali qabul qilinadigan qarorlar asosida yuritiladi. Shu bois, umumiy yig'ilishni o'tkazishga taqiq qo'yilishi, amalda jamiyatning butun faoliyatini to'xtatishga teng bo'lib qoladi<sup>5</sup>. Bunday chora o'z mazmuniga ko'ra arizachining manfaatlarini himoya qilishga emas, balki boshqa shaxsni o'z qonuniy faoliyatini amalga oshirish imkoniyati va huquqidan mahrum etmaslikka qaratilgan da'voni ta'minlash choralari mazmuniga zid hisoblanadi.

Ana endi amaliyotdan misollar keltiradigan bo'lsak, korporativ nizolar bo'yicha da'voni ta'minlash choralari arz qilingan talablarga mos kelishi, ya'ni bevosita nizo predmetiga bog'liq, da'vo talablariga mutanosib, sud hujjati ijrosini ta'minlash uchun kerakli va yetarli bo'lishi lozim. Nizo predmetiga bog'liq bo'lmagan da'voni ta'minlash chorasini qo'llashga yo'l qo'yilmasada, korporativ nizo bo'yicha sud amaliyotida predmetiga bog'liq bo'lmagan choralar qo'llanilganlik holatlari mavjud. Misol uchun, *da'vogar G.Davronovanning "Elite" MCHJ javobgarlar ishtirokchisi "Elite" MCHJ ishtirokchisi Q.Ergashev va MCHJga nisbatan MCHJga ulush sifatida kiritilgan 177 946 848 so'm miqdoridagi mulkning qiymatini undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishni ko'rish jarayonida, sud tomonidan da'vogarning MCHJ balansidagi mulkdan foydalanishga ta'qiq solish va xatlovga olish to'g'risidagi arizasi qanoatlan tirilgan. Natijada sud hujjatiga asosan MCHJ balansidagi Buxoro tumani, Qalmaqon MFY, Navoiy ko'chasida joylashgan 85,08 kv.metr dan iborat oziqovqat savdo do'koni xatlanib, undan foydalanishga taqiq qo'yilgan (qulflab, muhrlab qo'yilgan)*<sup>6</sup>.

Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish, jamiyat aksiyalari bilan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish, ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, aksiyalar emissiyasining haqiqiy emas deb topilishi yoki boshqa shu turdagi nizolar yuzasidan jamiyatga, uning boshqaruv organlariga yoki ishtirokchilariga navbatdagi yoki navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni o'tkazishni taqiqlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan hamda *"Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"*gi va *"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"*gi qonunlarda mustahkamlangan fuqarolarning yig'ilish o'tkazish huquqiga zid hisoblanadi. Mazkur taqiqlar, ayniqsa, boshqaruv organlari qarorlaridan norozilik bildirmagan aksiyadorlarning qonuniy huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkinligi sababli, bunday da'volar bo'yicha sudlar tomonidan yig'ilishlarni o'tkazishni cheklovchi talablar rad

<sup>5</sup> Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalari va aholi uchun amaliy qo'llanma / M.Saidov. – Toshkent: , 2019. – 149 b.

<sup>6</sup> Korporativ nizolarni sudda ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent: , 2023. – 92 b.

qilinishi lozim.

*Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida da'vogar "Konstruktorlik-texnologik markazi" MCHJning javobgar "Agromash" AJga nisbatan javobgar aksiyadorlarining 2021-yil 17-maydagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali jamiyat ustav kapitalini oshirish hamda qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vosi bo'yicha qo'zg'atilgan ishni apellyatsiya instansiyasi sudida ko'rish jarayonida da'vogar tomonidan da'voni ta'kinlash maqsadida "Agromash" AJ zimmasiga 2022-yil 2-iyunda o'tkazilishi lozim bo'lgan umumiy yig'ilish majlisini o'tkazishni taqiqlash majburiyatini yuklashni so'ragan. Sudning ajrim bilan arizani qanoatlantirish asosli ravishda rad etilgan<sup>7</sup>.*

Xorijiy davlatlar, xususan Angliya, AQSh, Germaniya va Fransiya tajribasida ushbu institutga alohida e'tibor qaratilib, da'voni ta'minlash choralari nafaqat da'vogarning manfaatlarini himoya qilish, balki kompaniyaning moliyaviy va boshqaruv barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligi prinsipidan kelib chiqib qo'llaniladi. Ayrim yurisdiksiyalarda esa, da'voni ta'minlash choralari qo'llashda muqobil choralar, masalan, kafil ko'rsatish, depozit mablag' ajratish kabi vositalar bilan sud qarorining muvozanatini ta'minlash amaliyoti mavjud.

**Germaniyada** da'voni ta'minlash institutining asosiy shakli — "einstweilige Verfügung" (vaqtinchalik qaror) bo'lib, bu chora Zivilprozessordnung (ZPO)ning 935–945-moddalarida tartibga solingan. Ushbu institut orqali sudlar da'vogar tomonidan keltirilgan da'voni ko'rib chiqish jarayonida uning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida vaqtinchalik chora-tadbirlar qo'llaydi.

§935 ZPO: Da'voni ta'minlash choralari, agar da'vogarning da'vo obyektiga bo'lgan huquqlari xavf ostida bo'lsa, qo'llaniladi<sup>8</sup>. §940 ZPO: Sud, da'vogar tomonidan taqdim etilgan dalillar asosida, vaqtinchalik chora-tadbirlarni belgilashi mumkin. Misol uchun, bir kompaniya boshqa kompaniyani sudga berganida, sud da'vogar kompaniyaning da'vo obyektiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish maqsadida, javobgar kompaniyaning muayyan aktivlarini muzlatib qo'yishi mumkin. Bu, ayniqsa, aksiyalar, intellektual mulk huquqlari yoki boshqa moliyaviy aktivlar bilan bog'liq nizolarda muhim ahamiyatga ega. Agar A kompaniyasi B kompaniyasini patent huquqlarini buzganlikda ayblab sudga bersa, sud A kompaniyasining da'vosi bo'yicha qaror chiqarguniga qadar, B kompaniyasining patent bilan bog'liq mahsulotlarini sotishni vaqtinchalik taqiqlashi mumkin. Bu orqali A kompaniyasining huquqlari himoya qilinadi va da'vo obyektining yo'qolishi yoki zarar ko'rishining oldi olinadi.

**Fransiyada** da'voni ta'minlash choralari "mesures conservatoires" (konservativ choralar) deb ataladi. Bu choralarning maqsadi, da'vogarning da'vo obyektiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish va sud qarori chiqarguniga qadar uning manfaatlarini saqlab qolishdir. **Code de procédure civile** - Fransiya fuqarolik protsessual kodeksi da'voni ta'minlash choralari bo'yicha umumiy qoidalarni belgilaydi. **Juge de l'exécution** - Bu sudya, ijro bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi va da'voni ta'minlash choralari bo'yicha qarorlar chiqaradi<sup>9</sup>. Fransiyada, agar bir kompaniya boshqa kompaniyani sudga bersa, sud da'vogar kompaniyaning da'vo obyektiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish maqsadida, javobgar kompaniyaning aktivlarini muzlatib qo'yishi yoki muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlashi mumkin. Bu, ayniqsa, aksiyalar, intellektual mulk huquqlari yoki boshqa moliyaviy aktivlar bilan bog'liq nizolarda

<sup>7</sup> Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining ishi;

<sup>8</sup> <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>

<sup>9</sup> <https://www.legifrance.gouv.fr>

muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, Agar C kompaniyasi D kompaniyasini tijorat sirlarini oshkor qilganlikda ayblab sudga bersa, sud C kompaniyasining da'vosi bo'yicha qaror chiqarguniga qadar, D kompaniyasining ushbu sirlarni oshkor qilishini vaqtinchalik taqiqlashi mumkin. Bu orqali C kompaniyasining huquqlari himoya qilinadi va da'vo obyektining yo'qolishi yoki zarar ko'rishining oldi olinadi.

AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari) korporativ huquq tizimida korporativ nizolarni hal qilishda da'voni ta'minlash choralari (preliminary injunctions, temporary restraining orders, attachments, receiverships) muhim protsessual vosita sifatida keng qo'llaniladi. Quyida ushbu choralarning mazmuni, qo'llanish tartibi va huquqiy asoslari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi, hamda foydalanilgan manbalar ko'rsatiladi.

AQSh da da'voni ta'minlash choralarining turlari quyidagilardan iborat:

**a) Temporary Restraining Order (TRO)** – Vaqtincha taqiqlovchi qaror. Bu da'vogar tomonidan darhol va favqulodda holatda talab qilinadi. Sud da'voni ko'rib chiqishdan oldin yoki asosiy ish boshlanishidan oldin tomonlardan birining harakatlarini vaqtincha to'xtatib turadi. TRO odatda qisqa muddatli bo'ladi (masalan, 10 kungacha). Masalan, agar direktorlar kengashi aksiyadorlarga zarar yetkazuvchi qaror chiqarmoqchi bo'lsa, aksiyadorlar bu qarorni vaqtincha to'xtatish uchun TRO olishi mumkin.

**b) Preliminary Injunction** – Dastlabki sud qarori

Bu TRO'dan farqli ravishda, asosiy ish ko'rib chiqilayotgan vaqtda kuchga kiradi. Sud da'vogar manfaatlarini himoya qilish uchun ish bo'yicha yakuniy qarorgacha taraflardan birining harakatini cheklaydi. Bunday holatda sud quyidagi mezonlarni baholaydi:

- Da'vogar jiddiy zarar ko'rishi mumkinmi?
- Da'voning muvofiqlik ehtimoli bormi?
- Ommaviy manfaatlar qanday?
- Qaysi tarafga ko'proq zarar yetadi<sup>10</sup>?

**c) Attachment** – Mulkni musodara qilish. Da'vogar suddan talab qilgan summa ta'minoti sifatida javobgarning mulkini muzlatishni so'rashi mumkin. Bu chora, ayniqsa, yuridik shaxs mulkini yo'q qilish xavfi mavjud bo'lsa, qo'llaniladi.

**d) Receivership** – Qabul qilib oluvchi tayinlash. Sud nizoli kompaniyani nazorat qilish uchun mustaqil shaxsni (receiver) tayinlashi mumkin. Bu choraga kompaniya moliyaviy inqirozda bo'lsa yoki noto'g'ri boshqarilsa murojaat qilinadi. Receiver kompaniya aktivlarini saqlaydi, audit qiladi va sud qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi.

AQSHda korporativ nizolar odatda shtat qonunchiligiga bo'ysunadi, eng ko'p holatlarda **Delaware General Corporation Law (DGCL)** qo'llaniladi. Delaware shtati korporatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha yetakchi yurisdiksiya bo'lib, ko'plab korporativ ishlar u yerda ko'rib chiqiladi<sup>11</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi asosida da'voni ta'minlash choralarining huquqiy asoslari va qo'llanilishi, shuningdek, xorijiy davlatlar (**Germaniya, Fransiya, AQSh**) sud amaliyotidagi yondashuvlar qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Da'voni ta'minlash sud jarayonida da'vogarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, da'vo obyektining yo'qolishi yoki zararlanishining oldini olish uchun muhim protsessual mexanizm sifatida ko'riladi. O'zbekistonda bu choralar Iqtisodiy

<sup>10</sup> Eric Talley, "Preliminary Injunctions in Corporate Litigation," Columbia Law Review, Vol. 104, No. 2 (2004), pp. 324–367;

<sup>11</sup> <https://courts.delaware.gov/chancery/>

protsessual kodeksning 94-moddasi bilan tartibga solinadi va ish yuritishning har qanday bosqichida qo'llanilishi mumkin. Xorijiy tajribada, masalan, Germaniyada “**einstweilige Verfügung**”, Fransiyada “**mesures conservatoires**”, AQShda “**preliminary injunctions**” va “**temporary restraining orders**” kabi choralar orqali da'vogarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga kompaniya barqarorligiga zarar yetkazmaslik prinsipi ta'minlanadi.

O'zbekiston sud amaliyotidagi misollar, masalan, “Elite” MCHJ ishi, da'voni ta'minlash choralarning nizo predmetiga mos kelmasligi yoki yuridik shaxs faoliyatiga jiddiy to'sqinlik qilishi kabi muammolarni ko'rsatadi. Xususan, umumiy yig'ilishlarni taqiqlash kabi choralar jamiyat faoliyatini to'xtatib qo'yishi va boshqa ishtirokchilarning qonuniy huquqlarini buzishi mumkin. Xorijiy davlatlarda esa muqobil choralar (kafil ko'rsatish, depozit ajratish) va qat'iy mezonlar (da'vo muvofiqligi, zarar ehtimoli) asosida muvozanatli yondashuv qo'llaniladi.

Shu munosabat bilan “**Da'voni ta'minlash choralariga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida**” O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan Plenum qarori qabul qilinishi zarur. Ushbu qaror sudyalarga korporativ nizolarni hal etishda da'voni ta'minlash choralarini qo'llash bo'yicha aniq yo'l-yo'riqlar beradi va yaxshi amaliyot sifatida xizmat qiladi. Qarorda choralar qo'llanilishi uchun mezonlar (nizo predmetiga moslik, mutanosiblik, yetarlilik), sud qarorining ijro etilishini ta'minlashdagi muvozanat va boshqa ishtirokchilar huquqlarini himoya qilish masalalari aniq belgilanishi lozim. Bu xorijiy tajribada, masalan, Germaniyaning Zivilprozessordnung (ZPO) qoidalari aniq tartibga solingan “**einstweilige Verfügung**” amaliyotiga o'xshab, sud amaliyotida bir xillikni ta'minlaydi.

Ikkinchi taklif esa **muqobil da'voni ta'minlash choralarini joriy etish** zarur. O'zbekiston qonunchiligida da'voni ta'minlash choralarini qo'llashda muqobil mexanizmlar, masalan, kafil ko'rsatish yoki depozit mablag' ajratish kabi vositalarni kengroq joriy etish zarur. Fransiya tajribasida “**mesures conservatoires**” doirasida qo'llaniladigan bunday choralar da'vogarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga, javobgar yoki uchinchi shaxslarning faoliyatiga ortiqcha zarar yetkazilishining oldini oladi. Masalan, kompaniya aktivlarini muzlatish o'rniga, da'vogar sud qarori ijro etilishini ta'minlash uchun bank kafolati yoki muayyan summada depozit taqdim etishi mumkin. Bu yondashuv O'zbekiston sud amaliyotida, ayniqsa, korporativ nizolarda yuridik shaxslar faoliyatini to'xtatib qo'yimaslik uchun samarali bo'ladi.

## REFERENCES

### ✚ Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi;
4. “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida” gi OSPQ-262-son;
5. “Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida” gi OSPQ-282-son.

### ✚ Darslik, o'quv qo'llanma va maqolalar:

1. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adbiyotlar Publish, 2022-y;
2. Korporativ nizolarni sudda ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent:, 2023.

3. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko‘rishning o‘ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalari va aholi uchun amaliy qo‘llanma / M.Saidov. – Toshkent: , 2019. – .
4. Гражданское право. Т.И // по. ред. А.И. Сергеева, Ю.К. Толстого. М.: Проспект. 2003. – 364 с.

 **Foydalanilgan saytlar:**

1. Lex.uz;
2. <https://www.ihk.de/hamburg/en/fairplay/business-law/limitation-actions-german-law-1159426>;
3. [https://uza.uz/oz/posts/davoni-taminlash-instituti-qachon-qollaniladi\\_612379](https://uza.uz/oz/posts/davoni-taminlash-instituti-qachon-qollaniladi_612379)
4. <https://courts.delaware.gov/chancery/>
5. <https://www.legifrance.gouv.fr>
6. <https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/>